

KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI TATBIQ QILISHDA QO'LLANADIGAN USULLAR

Rajabova Fazilat Xolbutayevna

Samarqand viloyati Ishtixon tumani

41-umumiy o'rta ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilishda qo'llanadigan usullar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim vositalari, samarali metod, galogenlar, murakkab masalalar, globallashuv, guruhli fikrlash, izlanish, imkoniyat, amaliy...

Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini eng samarali metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega. Baholash tizimi orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldi olinadi. Jahon yoshlari bilan tengma-teng raqobatlasha oladigan, kuchli bilim va tafakkurga ega avlod shakllanadi. Fan-texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida umumiy o'rta ta'lim maktablari kimyo fani o'qituvchilarining zimmasiga ham nihoyatda mas'uliyatli vazifalarni yuklab qo'ymoqda. O'quvchilarga kimyo fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovatsiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda darslarida zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish hozirgi kun talablaridan biri hisoblanadi. Kimyo darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kun kimyosining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu buyuk

vazifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori kimyo fanining ham o'rni kattadir.

"Munozara" usuli. Munozara o'tkazish mavzusi aniq bo'lishi kerak. Kimyo fanida "Galogenlar" mavzusi bo'yicha oladigan bo'lsak, mavzu tarixi, tabiatda uchrashi, ahamiyati kabi qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o'quvchilarga berilib, sinf o'quvchilari 3-4 kishidan guruhlanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a'zosi qo'yilgan muammolar haqida o'z fikrini bayon etish huquqiga ega. O'qituvchi va 3 kishidan iborat ekspert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi.

"Yaxshidan bog' qolar" usuli.

I. Modda formulasini yozing.

1.s **Qutbsiz kovalent bog'lanish.**

2.s **Qutbli kovalent bog'lanish.**


3. s **Ion bog'lanish**

II. Quvidagi birikmalarda bog' hosil bo'lish mexanzmini ifodalang.

- Cl₂

1. NH₃

2. NaF



12

"Kim ko'p biladi" usuli. Bu usulni kimyoning xohlagan mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob

so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa o'sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy t'alimda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Boshlang'ich 10 ta alkanni IUPAC nomenklaturasi bo'yicha nomlanishi

Uglerod atomlari ning soni	perfiks	nomi	Molekulyar formula	Ixchamlangan struktura formulasi
1	Met	Metan	CH ₄	CH ₄
2	Et	Etan	C ₂ H ₆	CH ₃ -CH ₃
3	Prop	Propan	C ₃ H ₈	CH ₃ -CH ₂ -CH ₃
4	But	Butan	C ₄ H ₁₀	CH ₃ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₃
5	Pent	Pentan	C ₅ H ₁₂	CH ₃ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₃
6	Geks	Geksan	C ₆ H ₁₄	CH ₃ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₃
7	Gept	Geptan	C ₇ H ₁₆	CH ₃ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₃
8	Okt	Oktan	C ₈ H ₁₈	CH ₃ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₃
9	Non	Nonan	C ₉ H ₂₀	CH ₃ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₃
10	Dec	Dekan	C ₁₀ H ₂₂	CH ₃ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₂ -CH ₃

Umumiy o'rta maktablarida kimyo fanidan ta'lim berish, uning fan-texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Hozirgi kunda maktablarida fanlarni o'qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, muhandislik, matematika va kundalik hayot bilan bog'lab o'rganish ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning dolzarb masalasidir.

“Ion-almashinish” usuli. Bu usulni ionlar mavzusini o'qitishda qo'llash tavsiya etiladi. Bunda oqova suvlarni metall ionlaridan (rux, mis, xrom, qo'rg'oshin, simob, kadmiy, vanadiy, marganes, nikel va boshq.), shuningdek,

mishyak, fosfor va sian birikmalari, radioaktiv moddalardan tozalashda qo'llaniladi. Bu usul suv tarkibidan qimmatbaho moddalarni rekuperatsiya qilib, uni yuqori darajada tozalash imkonini beradi. Suvni tayyorlash jarayonida uni tuzsizlantirishda ion-almashinish usuli keng tarqalgan.

Xullas, kimyo darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalar egallaydi. Bu kabi usullar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Kimyo" I.R Asqarov, Sh X. Abdullayev. O.SH. . Abdullayev Toshkent 2017-y
2. Turdiyev N.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, 2015-y,
3. Qo'shimcha ma'lumot uchun elektron manzillar: www.eduportal.uz.
4. Хамдамова, В. А. (2011). Формирование навыков обработки тканей учащихся на основе узбекских национальных традиций. *Молодой ученый*, (12-2), 144-145